

## INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*Namangan viloyati Yangiyo'rg'on tumani  
20-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan  
davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti  
tarbiyachisi **Abdurahimova Gulnoza Ilhomjanovna***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Finger o'yinlari, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, rolly-syujetli o'yinlar hamda sensor o'yinlarning alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning jismoniy, aqliy, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik o'yinlardan maqsadli foydalanish inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik o'yinlarni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, pedagogik o'yinlar, finger o'yinlari, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, sensor o'yinlar, rolly-syujetli o'yinlar, alohida ta'lim ehtiyojlari, rivojlanish.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, maktabgacha yosh, pedagogik o'yinlar, maxsus ehtiyojli bolalar, ijtimoiy adaptatsiya, sensor rivojlanish, korreksion pedagogika, universal dizayn, tengdoshlar ko'magi, integratsiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение педагогических игр в развитии детей дошкольного возраста в условиях инклюзивного образования. Анализируется влияние пальчиковых, дидактических, подвижных, сюжетно-ролевых и сенсорных игр на физическое, речевое, интеллектуальное и социальное развитие детей с особыми образовательными потребностями. Результаты исследования показывают, что целенаправленное использование педагогических игр способствует повышению эффективности инклюзивного образования и успешной социализации детей.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, дошкольное образование, педагогические игры, пальчиковые игры, дидактические игры, подвижные игры, сенсорные игры, сюжетно-ролевые игры, особые образовательные потребности, универсальный дизайн, поддержка сверстников, интеграция.

**Abstract:** This article examines the importance of pedagogical games in the development of preschool children in an inclusive educational environment. The study analyzes the influence of finger games, didactic games, movement games, role-playing games, and sensory games on the physical, cognitive, speech, and social development

of children with special educational needs. The findings indicate that the purposeful use of pedagogical games improves the effectiveness of inclusive education and supports children's successful social adaptation.

**Keywords:** inclusive education, preschool education, pedagogical games, finger games, didactic games, movement games, sensory games, role-playing games, special educational needs.

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga teng ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash hamda individual imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishdan iborat. Har bir foydalanilgan pedagogik o'yinlarning ahamiyati inklyuziv ta'lim sharoitidagi bolalar rivojlanishi uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi.[1]

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, intellektual, nutqiy va emotsional rivojlanishida eng muhim bosqich sanaladi. Aynan shu davrda ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va bolaning yosh xususiyatlariga mos tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik o'yinlar maktabgacha ta'limning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, ular bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Inklyuziv guruhlarda pedagogik o'yinlardan foydalanish yanada dolzarb hisoblanadi. Chunki bunday o'yinlar alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi va ularning mayda motorikasi, nutqi, diqqati, xotirasi, tafakkuri hamda ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Finger o'yinlari, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, rolli-syujetli o'yinlar va sensor o'yinlar bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki o'ziga bo'lgan ishonch, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi.

**Tadqiqotning maqsadi** – inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarni Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, intellektual, nutqiy va emotsional rivojlanishida eng muhim bosqich sanaladi. Aynan shu davrda ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va bolaning yosh xususiyatlariga mos tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik o'yinlar maktabgacha ta'limning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, ular bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Inklyuziv guruhlarda pedagogik o'yinlardan foydalanish yanada dolzarb hisoblanadi. Chunki bunday o'yinlar alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi va ularning mayda motorikasi, nutqi, diqqati, xotirasi, tafakkuri hamda ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Finger o'yinlari, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, rolly-syujetli o'yinlar va sensor o'yinlar bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki o'ziga bo'lgan ishonch, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Asosan alohida himoyaga muhtoj bolalar bilan bunday o'yinlarni tashkil etish, inklyuziv ta'lim rivojlanish samaradorligini oshiradi. Ular maktab va undan keyingi bosqichlarda jamoalashuv hamda moslashish jarayoni qulay usulda kechadi.

**Asosiy qism.** Pedagogik o'yinlarning inklyuziv ta'limdagi o'rnini Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning, jumladan alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim modelidir. Maktabgacha yoshda o'yin bolaning asosiy faoliyati bo'lib, uning bilish, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli pedagogik o'yinlardan foydalanish inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Pedagogik o'yinlar bolalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi, nutq faolligini oshiradi hamda emotsional holatni barqarorlashtiradi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun o'yinlar ta'lim mazmunini sodda va qiziqarli shaklda o'zlashtirish imkonini beradi.[2]

### **Finger o'yinlarining ahamiyati**

Finger o'yinlari barmoqlar harakatiga asoslangan mashg'ulotlar bo'lib, mayda motorikani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashicha, qo'l barmoqlarining faol harakati nutq markazlari faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Shu bois finger o'yinlari nutqida nuqsoni bo'lgan yoki rivojlanishda kechikish kuzatiladigan bolalar bilan ishlashda samarali vosita hisoblanadi.

Masalan, "Besh barmoq", "Kapalak", "O'rgimchak", "Gul ochildi" kabi finger o'yinlari bolalarda diqqatni jamlash, qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish va lug'at boyligini kengaytirishga yordam beradi.

### **Didaktik o'yinlarning ahamiyati**

Didaktik o'yinlar bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday o'yinlar orqali ranglarni ajratish, geometrik shakllarni tanish, sanash, taqqoslash, guruhlash va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.[3] Inklyuziv guruhlarda didaktik o'yinlar har bir bolaning individual imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Masalan, "Rangini top", "Ortiqchasini top", "Juftini top", "Kim tez topadi?" kabi o'yinlar bolalarning bilish faolligini oshiradi va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi. Asosan bunday pedagogik o'yinlarning maqsadi har bir bola uchun muhimdarajasi mavjud, lekin rivojlanishida ortda qolayotgan bolalar uchun ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik jarayonni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda ta'lim beruvchi hamda alohida xususiyatlarga ega bo'lishi lozim, u boladagi kechinmalarni xarakat

xussiyatlarini baholay olishi zarur. Buning uchun esa alohida ta'lim shakli zarurdir deb hisoblayman.

### **Harakatli o'yinlarning ahamiyati**

Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishi, muvozanati, chaqqonligi va koordinatsiyasini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ular bolalarda jamoa bilan ishlash, qoidalarga rioya qilish va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi.

Inklyuziv guruhlarda harakatli o'yinlarni tashkil etishda bolaning sog'lig'i va individual imkoniyatlari albatta inobatga olinishi zarur. "To'pni uzat", "Rangli halqalar", "Qushlar uyasiga" kabi o'yinlar barcha bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish yoki o'yin dasturlari, qo'llanmalar pedagog faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi.[4]

Asosan bunday pedagogik o'yinlarning maqsadi har bir bola uchun muhimdarajasi mavjud, lekin rivojlanishida ortda qolayotgan bolalar uchun ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik jarayonni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda ta'lim beruvchi hamda alohida xusxiyatlarga ega bo'lishi lozim, u boladagi kechinmalarni xarakat xussiyatlarini baholay olishi zarur. Buning uchun esa alohida ta'lim shakli zarurdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik o'yinlardan muntazam foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligi, muloqot ko'nikmalari, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli oshiradi. Ayniqsa, rivojlanishida o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolalar tengdoshlari bilan o'yin jarayonida faol hamkorlik qilish orqali nutqiy, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.[5]

L.S. Vigotskiy o'yinni bolaning psixik rivojlanishidagi yetakchi faoliyat turi sifatida baholab, aynan o'yin jarayonida bolaning "yaqin rivojlanish zonasi" kengayishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, bola kattalar yoki tengdoshlari ko'magida o'yin davomida mustaqil bajara olmaydigan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.[6]

J. Piage nazariyasiga ko'ra, o'yin bolaning intellektual rivojlanishida muhim vosita bo'lib, u atrof-muhitni anglash, tajriba orttirish va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. M. Montessori esa didaktik o'yinlar va maxsus rivojlantiruvchi materiallar orqali bolalarda mustaqillik, mas'uliyat va amaliy ko'nikmalar shakllanishini asoslab bergan.[7]

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham pedagogik o'yinlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, inklyuziv ta'lim bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning ijtimoiy integratsiyasi, o'zaro hurmat,

hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori natijalar berishi qayd etilgan.[8] O'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning darsdagi faolligi ortishi, qo'rquv va tortinchoqlikning kamayishi hamda ta'lim motivatsiyasining kuchayishi kuzatilgan.[9]

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: pedagogik o'yinlar inklyuziv guruhlarda barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratadi; o'yin jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish osonlashadi; bolalarda empatiya, bag'rikenglik va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi; pedagogning o'yinni maqsadli tashkil etishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

**Metodik tahlillar.** □ **AQSh va G'arbiy Yevropa (Peer support model):** O'yinlarda "Tengdoshlar ko'magi" modelidan foydalaniladi. Sog'lom bolalar o'yinda maxsus ehtiyojli bolalarga "tyutor" (yordamchi) qilib biriktiriladi. Bu orqali sog'lom bolalarda **empatiya (hamdardlik)**, imkoniyati cheklangan bolalarda esa **ishonch** shakllanadi. [1, 2]

□ **Skandinaviya davlatlari (Universal dizayn tamoyili):** O'yin maydonchalari va didaktik o'yinlar "barcha uchun ochiq" (Universal Design for Learning - UDL) qoidasi asosida yaratiladi. Masalan, ko'zi ojiz, eshitishida nuqsoni bor va aravachadagi bolalar bir vaqtda qatnasha oladigan sensorli, taktil va yorqin rangli o'yin majmualari qo'llaniladi. [10]

□ **Niderlandiya (Tovertafel - "Sehrli stol" texnologiyasi):** Autizm va intellektual rivojlanishi orqada qolgan bolalar uchun maxsus interaktiv yorug'lik o'yinlari yaratilgan. Stol ustiga proyeksiyalangan harakatlanuvchi ob'ektlar bolalarning jismoniy va ijtimoiy faolligini oshiradi. [11]

□ **Yaponiya va Janubiy Koreya (Kooperativ guruh o'yinlari):** individual g'alaba qozoniladigan o'yinlar o'rniga, faqat **jamoaviy hamkorlikda** maqsadga erishiladigan o'yinlar (masalan, barcha bola birgalikda katta matoni ushlab ko'ptokni tushirmaslik o'yini) o'ynatiladi. [12]

### **Pedagogik o'yinlarning inklyuziv ta'lim bilan bevosita aloqasi**

Yuqoridagi fikrlarimizni aniqlashtirish uchun didaktik o'yin va inklyuzivlik o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha asoslashingiz mumkin:

| <b>Inklyuziv ta'limning talabi</b>         | <b>Pedagogik o'yinning beradigan yechimi</b>                                                         |
|--------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ijtimoiy moslashuv (Ijtimoiylashuv)</b> | O'yin — bolalar o'rtasidagi barcha tillar va to'siqlarni yengib o'tuvchi tabiiy muloqot vositasidir. |
| <b>Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv</b>    | O'yin qoidalarini bolaning imkoniyatiga qarab moslashtirish (adaptatsiya) imkoniyati mavjud.         |

**Kompensatsiya va korreksiya** Sensor va harakatli o'yinlar nutq, eshitish yoki tayanch-harakat a'zolaridagi kamchiliklarni o'yin davomida sezdirmasdan rivojlantiradi.

**Psixologik xavfsiz muhit** Bolalar o'yinda xato qilishdan qo'rqmaydilar. Bu komplekslardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba tahlilidan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv o'yin faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. **"Universal dizayn" tamoyilini joriy etish:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'yin burchaklari va didaktik materiallar shunday loyihalashtirilishi kerakki, ulardan sog'lom bola ham, sensor yoki jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bola ham bir vaqtda foydalana olsun (masalan, ovozli, yorqin rangli va turli teksturali taktil o'yinchoqlar ko'paytirilishi lozim).[15]

2. **Jamoaviy va kooperativ o'yinlarga urg'u berish:** Individual g'oliblikka yo'naltirilgan musobaqa o'yinlari o'rniga, bolalarni jamoaga birlashtiradigan, faqat hamkorlikdagigina g'alaba qozonish mumkin bo'lgan o'yin turlarini ko'paytirish. Bu maxsus ehtiyojli bolalarni guruhdan ajralib qolishini (izolyatsiya) oldini oladi.

3. **Pedagoglar uchun "Tengdoshlar ko'magi" (Peer-support) metodikasini o'rgatish:** Tarbiyachilar o'yin davomida sog'lom bolalarni maxsus ehtiyojli bolalarga tabiiy ravishda yordamchi (tyutor) qilib birlashtirish usullarini o'zlashtirishlari kerak.[16] Bu sog'lom bolalarda empatiyani, imkoniyati cheklangan bolalarda esa ijtimoiy ishonchni shakllantiradi.

4. **Kadrlar malakasini oshirish va metodik ta'minot:** Pedagog-tarbiyachilar va defektologlar uchun inklyuziv o'yin texnologiyalarini (masalan, sensor integratsiya va art-terapevtik o'yinlar) qo'llash bo'yicha amaliy treninglar tashkil etish. [17]Shuningdek, inklyuziv o'yinlar bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar va xrestomatiyalar yaratish.

5. **Ota-onalarni o'yin jarayoniga integratsiya qilish:** Faqat bog'chada emas, balki uy sharoitida ham inklyuziv o'yin muhitini davom ettirish uchun ota-onalar bilan hamkorlik tizimini (masalan, "Inkluziv o'yin xonasi" oilaviy klublarini) yo'lga qo'yish.

### Xulosa.

Maktabgacha yoshdagi inklyuziv ta'limda pedagogik o'yinlar bolalarni tabiiy muhitda tengdoshlari guruhiga integratsiya qilish va ijtimoiy adaptatsiyasini oshirish uchun asosiy metodologik poydevor hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarda kognitiv rivojlanishni, balki tengdoshlarida ham empatiya va jamoaviy kooperatsiya ko'nikmalarini shakllantirish orqali inklyuziv muhitni ikki tomonlama rivojlantiradi. Inklyuziv ta'lim sharoitida

pedagogik o'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, balki ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik o'yinlardan tizimli va ilmiy asoslangan holda foydalanish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishga, rivojlanishida alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarda har bir o'yinning o'ziga xos vazifalarini mavjud. Bundan tashqari o'yinlar maxsus maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kasallik turiga moshlashgan bo'lishi lozim. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning o'yin texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy didaktik o'yinlar bankini yaratish hamda inklyuziv ta'lim metodikasini yanada takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori. – Toshkent, 2020.
3. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika.
4. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books.
5. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Schocken Books.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
8. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. –
10. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion. – Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education.
11. **Shirinova, N. V.** (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida ijtimoiylashtirishda o'yinlarning o'rni. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 3(2), 45-51.
12. **Murodova, G. Sh.** (2023). Inklyuziv guruhlarda pedagogik o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 6(4), 112-118.
13. **Booth, T., & Ainscow, M.** (2016). *Index for Inclusion: developing learning and participation in schools*. Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE). (*Inklyuziv ta'lim bo'yicha dunyodagi eng mashhur fundamental kitob*).

14. **Vygotsky, L. S.** (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press. (*O'yinning bola rivojlanishidagi roli haqidagi klassik manba*).
15. **Gmitrova, E., & Gmitrov, J.** (2021). The impact of play on the cognitive and social development of preschool children in inclusive settings. *Journal of Early Childhood Research*, 19(3), 289-302. (*Xalqaro Scopus maqolasi*).
16. **Pellegrini, A. D.** (2018). *The Role of Play in Human Development*. Oxford University Press. (*O'yin metodikasi bo'yicha xorijiy adabiyot*).
17. **UNESCO.** (2020). *Global education monitoring report 2020: Inclusion and education: All means all*. Paris, UNESCO. (*YUNESKOning inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro hisoboti*).